



ISLOM HUQUQI MANBALARI

Muxtorov Mavlonbek

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining

“Islom huquqi” magistranti

mavlonbekmuxtorov66@gmail.com

Annatatsiya: Islom dini va islom huquqshunosligi o‘zida mukammal hukmlarni mujassam etgan tizim sifatida Sharqdagi bir qator mamlakatlarda davlat va huquq rivojlanishiga, ayniqsa, ushbu mamlakatlardagi inson huquqlari, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy munosabatlarni ta’minlashga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Islom huquqining asosiy manbalari buyuk huquqshunoshlar ya’ni faqihlar tomonidan yakdillik bilan to‘rtta deb tan olingan. Usulul-fiqhda manbalar “adilla” (dalillar) atamasi bilan ifodalanadi.

Kalit so‘zlar: Islom huquqi, Qur’oni karim, Payg‘ambar, sura, oyat, sunnat, ijmo, qiyos, fiqh, manba, qonun, dalil, huquq.

G‘arb huquqi dunyoviy tizim bo‘lgani sababli uning manbalari qonunlar va urf-odatlardan iboratdir. Ammo islom huquqi dunyoviy huquq bo‘lgani holda diniy mohiyatga ega bo‘lgani uchun o‘zining sarchashmasini ilohiy manbadan oladi. Bu esa G‘arb huquqi bilan uning asosiy farqini ko‘rsatadi. Islom huquqining asosiy manbalari buyuk huquqshunoshlar ya’ni faqihlar tomonidan yakdillik bilan to‘rtta deb tan olingan. Usulul-fiqhda manbalar “adilla” (dalillar) atamasi bilan ifodalanadi. Mazkur to‘rtta asosiy manbani birma-bir ko‘rib chiqamiz¹:

Birinchi manba: Qur’oni karim. Qur’oni karim 23 yil – risolat (payg‘ambarlik) davri (610-632)da Payg‘ambarimiz Hazrat Muhammad alayhissalomga Alloh tomonidan nozil qilingan ilohiy kitob bo‘lib, 114 sura, 6210 oyat, 77434 so‘zdan tarkib topgan.

¹ Vahba Zuhayliy. Islom fiqhi va uning manbalari. – Bayrut: Dorul fikr. 1984. – J.1. – B. 29.



Qur'on suralarining 95 tasi 13 yil davomida Makka shahrida nozil bo'lib, "makkiy suralar" deb ataladi. Ularning 19 tasi, 622-yili yuz bergan hijratdan keyin 10 yil davomida Madinada nozil bo'lib, "madaniy suralar" deb qabul qilingan.

Aytib o'tilgan bu ikki xil suralarning farqlari shundan iboratki, Makkada nozil qilingan oyatlar ko'pincha e'tiqodiy masalalar, ibodatlar, oliy axloqiy fazilatlar, erkin fikrlilik, ilmu tafakkurni targ'ib qilishga qaratilgan. Ularda ko'pincha "Ey imon keltirganlar, Ey mo'minlar!" deb xitob etiladi.

Madinada nozil bo'lgan oyatlar, fiqhiy ahkom – muomalot, jinoyat va jazo, oilaviy munosabatlar, sulhu tinchlik bitimlari va musulmonlararo boshqa munosabatlarga tegishli bo'lib, ularda asosan "Yo ayyuhannos!" (Ey odamlar, ey insonlar) deb xitob etiladi².

Qur'onda fiqhiy-huquqiy masalalarga ko'pincha umumiy yondashiladi va ayrim masalalar, masalan, huquq va meros masalalari mufassal shaklda yoritib beriladi.

Mashhur fiqhshunos olim Abdulvahhob Xalof ko'rsatishicha, fiqhiy huquqiy masalalar bo'yicha Qur'onda quyidagi sohalarda oyatlar mavjud:

1. Xaqqulloh (amaliy ibodatlar) bo'yicha – 140 oyat;
2. Shaxsiy huquq (oila, taloq, vasiyat va boshqalar bo'yicha – 70 oyat;
3. Muomalot yoki fuqarolik huquqi (oldi-sotdi, ijara, garov, qarz, shirkat va boshqalar) bo'yicha – 70 oyat;
4. Jinoyat va jazo bo'yicha – 30 oyat;
5. Sud, sud jarayoni, guvohlik va unga bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha – 20 oyat;
6. Davlat huquqi sohasi bo'yicha – 3 oyat (bizning fikrimizcha) mavjud. Hammasi bo'lib Qur'onda – 333 ta huquqiy oyat bor³.

Qur'onning boshqa ilohiy kitoblardan asosiy farqi shundan iboratki, u faqatgina aqidaviy-g'oyaviy manba emas, balki qonun va axloq hamdir. Mashhur faylasuf Ibn Rushd (vaf. 595/1168) fikricha, bu Qur'onning buyuk mo'jizasi hisoblanadi.

² Vahba Zuhayliy. Islom fiqhi va uning manbalari. – Bayrut: Dorul fikr. 1984. – B. 40.

³ Shayx Muhammad Xuzariybek. Tarixut tashri'il islomiy. – Bayrut: 1988. – B. 155.



Ikkinchi manba: Sunnat. “Sunnat” lugʻatda yoʻl-yoʻriq maʼnosida boʻlib, fiqhiy atama sifatida islom Paygʻambarining soʻzlari, feʼllari (amallari) va taqrirlari yaʼni tasdiqlari, shuningdek, sahobalarning soʻzlari va amallari majmuidan iborat⁴.

Qurʻondan keyin islom huquqining ikkinchi manbai Sunnati nabaviya (Paygʻambarning sunnatlari) hisoblanadi. Ul zotning oʻzlari bunday degan edilar: “Sizlar uchun ikki narsa qoldirdim, modomiki ularga amal qilib yursangizlar, hech qachon adashmaysizlar. Ular Allohning kitobi va mening sunnatimdir”⁵. Shubhasiz, Hazrat Muhammad sollallohu alayhi vasallam Allohning tanlangan vakili, buyuk elchisi va targʻibotchisi edi.

Tadqiqotchi olimlar, jumladan, doktor Ahmad Shalabiy Sunnatni ikki turga boʻlib oʻrgangan.

Birinchi turi shundan iboratki, agar biror ish qilinmoqchi boʻlsa, yaratuvchi tomonidan oʻsha ishga tegishli fikr Paygʻambarga vahiy xofiy (maxfiy vahiy) yaʼni ilhom yoki tush orqali bildiriladi. Paygʻambar uni oʻz soʻzlari orqali bayon etadi. Bu vahiy, yaʼni maxfiy vahiyni Qurʻon oyatlari, yaʼni vahyi jaliy (ochiq-oydin boʻlgan vahiy)dan farqi shundaki, Qurʻon oyatlarining ham mazmuni va ham iborasi Alloh tomonidan Jabroil orqali yuborilgan⁶.

Sunnatning ikkinchi turi shundan iboratki, agar musulmonlar hayotiga tegishli biron-bir yangilik kiritish zarurati sezilsa, lekin uni hal qilish uchun Paygʻambar (a.s.)ga vahiy kelmasa, bunday ahvolda Paygʻambarga ijti-hod qilish, yaʼni masalani oʻz shaxsiy fikri asosida yechish uchun ruxsat berilgan hisoblanadi. Oʻshanda Paygʻambar ijti-hod qilib, sahobalar bilan kengash – maslahat oʻtkazib, bir toʻxtamga keladi. Agar Paygʻambar tomonidan qabul qilingan qaror va bildirilgan fikr Qurʻon oyatlari orqali toʻgʻrilansa,

⁴ Vahba Zuhayliy. Islom fiqhi va uning manbalari. – Bayrut: Dorul fikr. 1984. – J.1. – B. 35.

⁵ S. A. Isxakov, A.R. Raxmanov. Musulmon huquqi: oliy taʼlim muassasalari uchun darslik. – T.: Oʻzbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – B. 40.

⁶ Shayx Muhammad Xuzariybek. Tarixut tashriʼil islomiy. – Bayrut: 1988. – B. 156.



Sunnat (Paygʻambarning soʻzi yoki qabul qilgan qarori) Qurʻon orqali bekor qilinadi va Qurʻonning hukmi amalga oshiriladi⁷.

Sunnatning qonun tuzish salohiyati. Paygʻambar Qurʻonning sharhlovchisi sifatida shariatga joriy qilish (qonun tuzish) vakolatiga ega boʻlgan. Shunga binoan, Sunnat shariatga joriy qilish boʻyicha ikki asosiy sohani qamrab oladi⁸:

Birinchi soha Qurʻonda zikr etilgan hukmlarni yoritib berishga bogʻliq.

Ikkinchi soha Qurʻonda koʻrsatilmagan hukmlarning shariatga joriy qilishiga yaʼni ularni belgilab berishga bogʻliq boʻladi.

Birinchi sohada Sunnat Qurʻoni karim oyatlarini tafsir va taʼvil qiladi, mujmal iboralarini izohlaydi, umumiy maʼnoga ega boʻlganini xoslashtiradi, mutlaq, yaʼni qaydu shartsiz oyatlarga qaydu shart qoʻyadi. Baʼzi bir misollar: Qurʻonda “Namoz oʻqinglar” deb amr qilingan, lekin namozlarning soni, sifati, rakatlarining soni Paygʻambar tomonidan belgilab va amalda koʻrsatib berilgan. Bu esa mujmal iborani izohlash misolidir⁹.

Ikkinchi sohada Sunnatga tegishli bahs: Zarurat chogʻida Qurʻonda aytilmagan biron-bir yangi hukmni Sunnat belgilab beradi. Bu oʻrinda baʼzi hukmlar Paygʻambardan vahyi xafiy (ilhomga oʻxshash holat) orqali sodir boʻlgan va baʼzilari uning ijtihodi va shaxsiy fikridan kelib chiqqan. Albattaki, Paygʻambar ijti hod qilishda ham islom ruhi va falsafasini nazarda tutardi.

Hadis ilmi yoki hadisshunoslik. Hadis Sunnatning asosiy qismi, yaʼni Paygʻambarimizdan rivoyat qilingan soʻzlarni ifodalaydi. Lekin baʼzi bir tadqiqotchi olimlar, jumladan, al-Azhar universitetining vakili doktor al-Husayniy Abdulmajid Hoshim Sunna, hadis, xabar va asarni bir maʼnoda, yaʼni Paygʻambar tomonidan asos solingan yoʻl-yoʻriq, uning soʻzlari undan sahobalar va tobeindan yetib kelgan barcha rivoyatlarni oʻz ichiga oladi, deb taʼkidlaydi¹⁰.

⁷ Vahba Zuhayliy. Islom fiqhi va uning manbalari. – Bayrut: Dorul fikr. 1984. – J.1. – B. 45.

⁸ Doktor Ahmad Shalabiy. Islomda qonun va sud. – Qohira: Maktabatun nahzatil arabiya, 1989. – B.156.

⁹ Shayx Muhammad Xuzariybek. Tarixut tashriʼil islomiy. – Bayrut: 1988. – B.163.

¹⁰ Vahba Zuhayliy. Islom fiqhi va uning manbalari. – Bayrut: Dorul fikr. 1984. – J.1. – B. 45.



Uchinchi manba: ijmo. “Ijmo” so‘zi ittifoq va kelishuv ma’nosida ishlatiladi. Fiqhiy atama sifatida “ijmo, odillik sifati va mujtahidlik malakasiga ega bo‘lgan bir davr olimlarining muayyan hukmlar bo‘yicha kelishuvidan iboratdir”.

Ijmo, Sunnadan keyin fiqh – islom huquqining uchinchi asosiy manbai bo‘lib, u orqali belgilangan hukmlarga amal qilish vojib bo‘ladi. G‘azzoliy fikricha, ijmo mazhabiy masala bo‘yicha Muhammad ummatining ittifoqi – kelishuvidir.

To‘rtinchi manba: qiyos. Qiyosning lug‘aviy ma’nosi solishtirish va taqqoslash bo‘lib, huquqiy atama sifatida hukmi aniq bo‘lmagan masalani nass orqali hukmi aniq bo‘lgan masala bilan solishtirib, oralarida mushtarak sabab mavjud bo‘lgan suratda ikkinchi masala hukmini hukmi aniq bo‘lmagan masalaga ko‘chirishdan iboratdir. O‘shanda ikkinchi masala islom qonuniga muvofiq bo‘lsa, birinchi masala ham qonuniy bo‘ladi yoki aksincha¹¹.

Islom huquqining manbalari Qur’on, sunna, ijmo, qiyos tashqari mahalliy urf-odatlar sanalgan. Islom dini o‘z huquqiy tizimi va qonunchiligini rivojlantirar ekan, Qur’on va Sunnatga asoslangan holda jamiyatlardagi qonun darajasiga ko‘tarilgan urf-odatlar va an’anaviy udumlardan ham foydalangan. Shu ma’nodaki, ularning ayrimlari Qur’on oyatlari yoki hadislar orqali bekor qilingan, ayrimlariga o‘zgartirishlar kiritib qabul qilingan va ba’zilariga qonuniy tus berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vahba Zuhayliy. Islom fiqhi va uning manbalari. – Bayrut: Dorul fikr. 1984. – J.1. – 429 b.
2. Doktor Ahmad Shalabiy. Islomda qonun va sud. – Qohira: Maktabatun nahzatil arabiya, 1989. – 456 b.
3. Shayx Muhammad Xuzariybek. Tarixut tashri’il islomiy. – Bayrut: 1988. – 248 b.
4. S. A. Isxakov, A.R. Raxmanov. Musulmon huquqi: oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 177 b

¹¹ Vahba Zuhayliy. Islom fiqhi va uning manbalari. J.1. – Bayrut: Dorul fikr. 1984. – B. 47.